

## SHIFOKOR

SAMARQAND DAVLAT  
TIBBIYOT INSTITUTI  
NASHRI

## SO`ZI

GAZETA 1938 YILDAN "MEDITSINA FANI UCHUN" NOMI BILAN CHIQA BOSHLAGAN

## 9-MAY "XOTIRA VA QADRLASH KUNI"

2021 yil 11 may kuni institut 1-son klinikasi bog'ida 9-may "Xotira va qadrlash kuni" munosabati bilan bayram tadbiri o'tkazildi. Tadbirda institutda ko'p yillar samarali mehnat qilgan xodimlar va faxriylar, professor-o'qituvchilar va talabalar ishtirok etdilar.

Tantanalı uchrashuvni institut rektori, professor Jasur Rizayev ochib berib o'zini chiqishida institutda o'tgan ustozlarini eslab hozirda tibbiyot sohasi uchun malakali kadrlarni tayyorlashga katta hissa qo'shib kelayotgan professor-o'qituvchilarga faxriy yorliqlar va esdalik sovg'alarini topshirdi.

Ishtirokchilarga institutning "Talabalar teatr studiyasi" talabaları tomonidan tayyorlangan "Urush noming o'chsin jahonda" nomli teatrlashtirilgan spektakl ijro etildi. Sahnalashtirilgan spektaklda iqtidorli talabalar qatnashib ular tomonidan ijro etilgan ro'llarni a'lo darajada o'ynaganliklari barchani lol qoldirdi.

## BAYRAMI KENG NISHONLANDI

Tadbirda O'zbekiston Respublikasi Qurollı Kuchlari kichik mutaxassislarni tayyorlash Markazi kursantlari tomonidan qurol-aslahalar ko'rgazmasi namoyish etildi va ular haqida talabalarga batafsil ma'lumotlar berdi.

Tadbirning badiiy qismida Markaz kursantlari tomonidan qo'ljangi chiqishlari namoyish etilishi barchaga manzur bo'ldi. Chiqishlarda Markaz kursantlarining yuragidagi shijoat va ko'zidagi olovni ko'rgan tomoshabinlar, yurtimiz daxlsizligi ishonchli qo'llarda ekanligiga yana bir bor amin bo'ldilar. Bayram uchrashuvida taklif qilingan Markaziy harbiy okrug harbiy orkestrini bevosita ishtirokida ikkinchi jahon urushi vaqtidagi kuy va qo'shinlarini ijro etilishi barcha ishtirokchilar tomonidan jo'shqin kutib olindi.

Harbiy-tibbiy tayyorgarlik kafedrası

xodimlari rahbarligida institut kursant-talabaları ham chiqishlar qilib, o'zlarini harbiy tayyorgarliklarini ko'rsatdilar.

Bayram uchrashuvida ishtirok etgan O'zbekiston "Milliy tiklanish" demokratik partiyasi Samarqand viloyat kengashi vakillari ham ishtirok etdi. Samarqand shahar xalq deputatlari kengashi deputati Sh.J. Alibekov Jamiyatimiz ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy-ma'rifiy hamda ilmiy rivojiga qo'shayotgan hissasi uchun institut rektori J.A. Rizaev O'zbekiston "Milliy tiklanish" demokratik partiyasi Samarqand viloyat kengashining "Faxriy yorlig'i"ni tantanalı ravishda topshirdi.

Bayram tadbiri so'ngida barcha ishtirokchilar va mehmonlar tashkilotchi va faollarga minnatdorchilik bildirdilar hamda musaffo osmon va tinch hayot, sihat-salomatlik, baxt va omadlar tilab qoldilar.





## «Tibbiyot va biologiyada lazerlar» Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi



Institutda “Tibbiyot va biologiyada lazerlar” Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi o‘tkazildi. Zamonaviy lazer texnologiyalarini tibbiyotni turli sohalarda qo‘llash, fundamental fanlar innovatsion yutuqlarini amaliy sog‘liqni saqlash tizimiga joriy qilish, soha uchun muttaxislar tayyorlash sifatini oshirish hamda xorijiy hamkorlar bilan aloqalarni mustahkamlashga bag‘ishlangan xalqaro

forum ishida Rossiya, Italiya, Isroil, Qozog‘iston, Polsha va O‘zbekistonni bir qator tibbiyot oliy o‘quv yurtlari va ilmiy-amaliy markazlarini 200 ortiq yetakchi mutaxassislari ishtirok etdilar.

“Tibbiyot va biologiyada lazerlar” Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasini tantanali ochilish marosimida institut rektori, professor Jasur Rizaev, O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vaziri o‘rinbosari, Respublika dermatovenerologiya va kosmetologiya ixtisoslashgan ilmiy-amaliy tibbiyot markazini direktori Ulugbek Sabirov (Toshkent, O‘zbekiston), Boshqird davlat tibbiyot universiteti rektori Valentin Pavlov (Ufa, Rossiya), DEKA LASERni O‘zbekistondagi vakili Gulnara Rasulova (Toshkent, O‘zbekiston) va Toshkent vrachlarni malakasini oshirish instituti rektori Xabibulla Akilov (Toshkent, O‘zbekiston) o‘zlarini qutlov so‘zlari bilan chiqishlar qildilar.

Yalpi majlisdagi ma‘ruzalarni tinglagandan so‘ng tadbirni asosiy ishi «Xirurgiyada lazerlar», «Dermatologiya va kosmetologiyada lazer texnologiyalari», «Kasalliklarini diagnostika va davolashida lazer texnologiyalarini qo‘llash» sho‘balarida davom etildi va ularda lazer texnologiyalari va ularni amaliy sog‘liqni saqlashda, shu jumladan xirurgiya, dermatologiya, ginekologiya, kosmetologiya, nevrologiya, stomatologiya va boshqa sohalarda qo‘llashni dolzarb masalalariga bag‘ishlangan 50 ortiq ma‘ruzalar eshitildi.

Shuningdek, konferensiyada dori-vositalari, diagnostika va davolash uskunalarini ko‘rgazmasi ham tashkil qilinib, ishtirokchilari tomonidan katta qiziqish bilan kutib olindi.

Institutda o‘tkazilgan «Tibbiyot va biologiyada lazerlar» Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi shubhasiz respublikamiz tibbiyotida zamonaviy lazer texnologiyalarini qo‘llash, tibbiyot sohasini eng zamonaviy ilmiy yutuqlar bilan boyitish, malakali tibbiyot kadrlarini tarbiyalash, tibbiyot oliygohlarini chet ellik universitetlari va ilmiy-tadqiqot muassasalari bilan hamkorligini yanada mustahkamlashga xizmat qiladi.

**Jonibek QODIROV**  
DKTF dekani

## “SHIFOKOR SHAXSINI RIVOJI VA SHAKLLANISHINI PEDAGOGIK VA PSIXOLINGVISTIK XUSUSIYATLARI” XALQARO ILMIIY-AMALIY KONFERENSIYASI O‘TKAZILDI

2021 yil 5-may kuni institutda “Shifokor shaxsini rivoji va shakllanishini pedagogik va psixolingvistik xususiyatlari” navbatdagi Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi o‘tkazildi.

Mazkur xalqaro konferensiyani o‘tkazishdan maqsad bu avvalam bor zamonaviy shifokorlarni tarbiyalash, ularni shakllanishini pedagogik va psixolingvistik xususiyatlari, tibbiy ta’limda zamonaviy interfaol pedagogik texnologiyalar va axborot texnologiyalardan foydalanishni muhokama qilish hamda xorijiy tibbiyot oliy ta’lim muassasalari va ilmiy-amaliy markazlar bilan aloqalarni mustahkam bo‘lishini ta’minlaydi.

Xalqaro forum ishida Rossiya, Indoneziya va O‘zbekistonni bir qator oliy o‘quv yurtlari va ilmiy-amaliy markazlarining 180 dan ziyod vakillari ishtirok etdilar.

“Shifokor shaxsini rivoji va shakllanishini pedagogik va psixolingvistik xususiyatlari” Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasini tantanali ochilish marosimida institut rektori, professor Jasur Rizayev, Indoneziyani O‘zbekistondagi Favqulodli va

Muxtor elchisi janob Sunaryo Kartadinata, Ijevsk davlat tibbiyot akademiyasi rektori Aleksey Shklyayev, Samarqand davlat universiteti rektori professor Rustam Xolmurodov, Samarqand veterinariya meditsinasi instituti rektori professor Xudaynazar Yunusov, Samarqand davlat chet tillar instituti rektori Ilxom Tuxtasinov o‘zlarini qutlov so‘zlari bilan chiqishlar qildilar.

Yalpi majlisdagi ma‘ruzalarni tinglagandan so‘ng tadbirni asosiy ishi “Gumanistik va sotsial pedagogika”, “Lingvo-psixologik pedagogika, pedagogik psixologiya”, “Differensia psixologiya, psixofiziologiya” sho‘balarida davom etildi va sohani dolzarb masalalariga bag‘ishlangan 40 ortiq ma‘ruzalar eshitildi.

Institutda bo‘lib o‘tgan “Shifokor shaxsini rivoji va shakllanishini pedagogik va psixolingvistik xususiyatlari” Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi shubhasiz respublikamiz tibbiy oliygohlarida zamonaviy pedagogik va interfaol texnologiyalarini qo‘llash, klinik va



fundamental tibbiy fanlarni dars mashg‘ulotlari sifatini yana-da oshirish, milliy pedagogika maktabini zamonaviy ilmiy yutuqlar bilan boyitish, malakali tibbiyot kadrlarini tarbiyalash hamda chet ellik universitetlari va ilmiy-tadqiqot muassasalari bilan hamkorlikni yana-da mustahkamlashga xizmat qiladi.

**Lola RAZIKOVA**  
Pedagogika va psixologiya kafedrasini  
mudiri, dotsent

## Tibbiyot ta'lim jarayonini fundamental fanlar va klinik tibbiyotida innovatsion texnologiyalarni roli

6-may kuni institutda “Tibbiyot ta'lim jarayonini fundamental fanlar va klinik tibbiyotida innovatsion texnologiyalarni roli” mavzusida Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi o'tkazildi. Tibbiyot tizimi uchun malakali va professional jihatdan yetuk kadrlarni tayyorlashda eng avvalam bor innovatsion yutuqlardan foydalanish, tibbiy ta'lim jarayoniga innovatsion texnologiyalarni kiritish va ta'lim dargohlarida ulardan samarali foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Xalqaro ilmiy-amaliy forumda Rossiya, Italiya, Azerbaijan, Qozog'iston va O'zbekistonning bir qator tibbiyot oliy o'quv yurtlari va ilmiy-amaliy markazlarining 300 ga yaqin vakillari ishtirok etdilar.

Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasini tantanali ochilish marosimida O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirini birinchi o'rinbosari Amrillo Inoyatov, SamDTI rektori Jasur Rizayev, O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasini immunologiya va inson genomikasi instituti direktori, akademik Tamara Aripova, Ijevsk davlat tibbiyot akademiyami prorektori Marina Ivanova (Ijevsk, Rossiya), Ozarbayjon davlat tibbiyot universiteti prorektori Mushfig Orudjev (Baku, Ozarbayjon) o'zlarini qutlov so'zlari bilan ishtirokchilarga murojaat etib konferensiya ishiga omadlar tiladilar.



Yalpi majlisda tibbiy fundamental va klinik fanlar o'qitish xususiyatlariga bag'ishlangan ma'ruzalardan so'ng konferensiya ishi sho'balarda davom ettirildi. “Normal anatomiya, gistologiya, sitologiya — embriologiya, mikrobiologiya, virusologiya, immunologiya ta'lim jarayoni amaliyotida innovatsion texnologiyalar”, “Patologik anatomiya, patologik fiziologiya ta'lim jarayoni amaliyotida innovatsion texnologiyalar”, “Klinik fanlar ta'lim jarayoni amaliyotida innovatsion texnologiyalar” va boshqa mavzularda ma'ruzalar eshitildi.

Konferensiya doirasida Pirogov interaktiv anatomik stolini odam anatomiyasi va klinik anatomiyasi fanlarini o'qitishdagi roli, mikrobiologiya fanini o'rganishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish, ta'limni interfaol metodlaridan foydalanib samarali amaliy mashg'ulot o'tkazish kabi

mavzularida mahorat darslari tashkil etildi. Taniqli xorijlik mutaxassis, Milan Universiteti (Italiya Respublikasi) professori Diyego Lopes tomonidan o'tkazilgan “Estetik implantlar” mavzusidagi master-klass ishtirokchilarni katta qiziqishini uyg'otdi.

Institutda o'tkazilgan “Tibbiyot ta'lim jarayonini fundamental fanlar va klinik tibbiyotida innovatsion texnologiyalarni roli” mavzusidagi Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi shubhasiz respublikamiz tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayonni yaxshilash, fundamental va klinik fanlar o'qitilish sifatini yana-da oshirish, malakali tibbiyot kadrlarini tayyorlash hamda respublikamiz va xorijiy tibbiyot oliygohlari hamkorligini yana-da kuchaytirishga xizmat qiladi.

**Xojimhammad Abbasov**  
O'YoIBT institut yetakchisi

## 9 MAY – “XOTIRA VA QADRLASH KUNI” ARAFASIDA INSTITUT FAXRIYSI XONADONIGA TASHRIF

9 may – Xotira va qadrlash kuni arafasida mamlakatimiz bo'ylab Ikkinchi jahon urushi qatnashchilari va front ortida Vatan ravnaqi yo'lida fidokorona mehnat qilgan faxriylarga yuksak hurmat-ehtirom ko'rsatilib, ular holidan xabar olindi.

Bayram arafasida viloyatimizning shahar va tumanlarida istiqomat qilayotgan Ikkinchi jahon urushi

qatnashchilari xonadonlariga yo'qlov tadbirlari uyushtirildi. Ularga bayram tilaklari bildirilmoqda. Shunday tadbirlardan biri Samarqand shahri Motrid mahallasida istiqomat qiluvchi Ikkinchi jahon urushi qatnashchisi, ko'p yillar davomida Samarqand davlat tibbiyot institutida samarali mehnat qilgan, t.f.n, dotsent, 97 yoshni

qarshilagan Fazliddin Asliddinov xonadonida tashkil etildi.

Tashrif buyurgan yoshlar bilan ishlash, ma'naviyat va ma'rifat bo'limi xodimlari, gumanitar va ijtimoiy fanlar, harbiy-tibbiy tayyorgarlik kafedralar, fakultetlar ma'naviyat bo'yicha dekan o'rinbosarlari, institut Yoshlar Ittifoqi faollari urush qatnashchisi holidan xabar olib, institut tomonidan esdalik sovg'alarini topshirdilar.

Institut faxriysi Asliddinov Fazliddin Asliddinovich jahon urushida ro'y bergan voqealarni esga oldilar, tashrif uchun institut vakillariga minnatdorchilik bildirildi. Qo'llar duoga ochilib, dunyomiz-yurtimiz tinchligi uchun shukronalar keltirildi.

**Suxrob ERBOEV**  
Yoshlar bilan ishlash, ma'naviyat va ma'rifat bo'limi uslubchisi





## ILMIY ISHLARNI RASMIYLASHTIRISH TO'GARAGI FAOLLARI BILAN UCHRASHUV



Institutda faoliyat ko'rsatayotgan "Ilmiy maqolalarni yozish va chop etish" talabalar ilmiy to'garagini a'zolari bilan uchrashuv o'tkazildi.

Uchrashuvda institut ilmiy ishlar va

innovatsiyalar bo'yicha prorektor, t.f.d. Sh.Ziyadullaev uslubiy to'garak a'zolari bilan ochiq muloqot o'tkazib ularni fikr va mulohazalarini eshitdi. Talabalar to'garak faoliyatiga e'tibor qaratdi. Iqtidorli yoshlar

ilmiy ishlarni yozish, rasmiylashtirish qoidalari bo'yicha ko'plab ma'lumotlar va ko'nikmalar olganliklarini ta'kidladilar hamda institut rahbariyatiga chuqur minnatdorchiklarini bildirdilar. Iqtidorli talabalarning ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkillashtirish bo'limi boshlig'i U.Payzullaeva ham chiqish qilib kelgusi rejalar haqida ma'lumot berdi. Talabalar uchun yangi "Ilmiy maqolalarni tahlil qilish" nomli to'garakni ochilishini elon qilinishi ishtirokchilar tomonidan xursandchilik bilan kutib olindi.

Talabalar bilan uchrashuvni yakunida "Ilmiy maqolalarni yozish va chop etish qoidalari" 17 soatlik kursini to'laqonli o'zlashtirganligi to'g'risida tegishli sertifikatlar to'garakda faol qatnashgan talabalarga tantanali ravishda taqdim qilindi.

SamDTI matbuot xizmati

## JIZZAXLIK BITIRUVCHILAR BILAN UCHRASHUV

Institutga Jizzax viloyati sog'liqni saqlash boshqarmasi boshlig'i Ozoda Mahmudova boshchiligida davolash-profilaktika muassasalari rahbarlari hamda shahar va tumanlar tibbiyot birlashmasi boshliqlaridan iborat delegatsiya tashrif buyurib institutni 2020-2021 o'quv yilida bitiruvchilar bilan uchrashuv o'tkazdi.

Uchrashuvni institut rektori, professor Jasur Rizayev ochib berib mehmonlarni Samarqand zaminiga kelganligi bilan qutladi. Institut rahbari mehmonlarni institut bitiruvchilarga qiziqqanligidan mamnuniyat bildirib, ma'muriyat tomonidan bitiruvchilarni tez orada joylarda ish boshlashlariga barcha sharoitlarni yaratishga tayyor ekanligini bildirdi. Jizzax viloyati sog'liqni saqlash boshqarmasi boshlig'i O.Mahmudova o'z navbatida uchrashuvni tashkil etilganlik uchun instituti ma'muriyatiga minnatdorchilik bildirib, bitiruvchilarga Prezident qarorlari bilan berilayotgan imtiyozlar va yaratiladigan shart-sharoitlar haqida ma'lumot berdi. Jizzax viloyatida 200 dan

ortiq shifokorlar yetishmasligi, hozir ishlayotgan shifokorlarni qariyb 40 foizi nafaqa yoshida ekanligi, oliy ma'lumotli tibbiyot xodimlariga talab juda ham yuqori bo'lganligi haqida aytili. Jizzaxlik bitiruvchilardan umidimiz katta va sizlarni viloyatimizga qaytib, xalqimiz salomatligini saqlashda yordam berishlaringizni, viloyat rahbariyati tomonidan esa sizlarga hurmatli Prezidentimiz tomonidan beriladigan barcha imtiyozlardan tashqari, shahar va tumanlar hokimiyati tomonidan ham ishlash va yashashlaringiz uchun qulay shart-sharoitlar yaratilishi ta'kidlandi.

Uchrashuvda Jizzax viloyat teri tanosil kasalliklari dispanseri bosh shifokori, t.f.d., prof. M. Yuldashev, Jizzax viloyat qon quyish markazi bosh shifokori Yo. Yakubov, Zarbdor tumani hokimini o'rinbosari I. Hosilbekov, Arnasoy va G'allaorol tumanlar tibbiyot birlashmalari boshliqlari M. Abdusattorova va X. Saidov so'zga chiqib, tibbiyot muassalaridagi yaratilgan shart-sharoitlar, beriladigan imtiyozlar va yaratiladigan qulayliklar

haqida ma'lumot berib o'tdilar. Bitiruvchilarni qiziqtirilgan savollariga batafsil javoblar ham qaytarildi.

Ko'plab bitiruvchilar Jizzax viloyatini tibbiyot muassasalarida ishlashga rozilik berdilar, ayrimlari bilan shu yerning o'zida mehnat shartnomalari tuzildi.

Xususan, "Men 15-maydan so'ng g'allaorolda ish boshlayman, hozir G'allaorol tuman tibbiyot birlashmasi boshlig'i X. Saidov bilan mehnat shartnomasini tuzdim. Hurmatli rektorimiz o'qishimni onlayn tarzga ko'chirishga ruxsat berdilar. Bizlarga nisbatan ko'rsatilayotgan shuncha e'tibordan xursandman. Olti yil davomida jonajon institutimda ustozlarimdan olgan bor bilimimni xalqimiz salomatligini mustahkamlashga xizmat qilishga tayyorman" – deb aytdi, institut bitiruvchisi Jamshid Eshonqulov.

**Begzod YO'LDOSHEV**

**Institut buyurtmalar profilini  
shakllantirish, bitiruvchilarni ishga  
taqsimlash va monitoring bo'limi boshlig'i**



## “Zamonaviy tibbiyot va farmatsevtika: yangi yondashuvlar va dolzarb tadqiqotlar” talabalar va yosh olimlar an'anaviy 75 -Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi

2021 yil 18-may kuni Samarqand davlat tibbiyot institutida “Zamonaviy tibbiyot va farmatsevtika: yangi yondashuvlar va dolzarb tadqiqotlar” talabalar va yosh olimlar an'anaviy 75 — Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi o'tkazildi. Tibbiyot tizimi va farmatsiya sohasi uchun malakali va professional jihatdan yetuk kadrlarni tayyorlash, talabalar va yosh tadqiqotchilarni ilmiy izlanishlarga jalb qilish va ularni salohiyatidan samarali foydalanish, tibbiy ta'lim jarayoniga innovatsion texnologiyalarni kiritish va oliy ta'lim dargohlarida ulardan samarali foydalanish konferensiyani asosiy maqsadlaridan bo'ldi. Talabalar va yosh olimlarni Xalqaro ilmiy-amaliy forumida Rossiya, Ukraina, Turkiya, Hindiston, Qozog'iston, Tojikiston va O'zbekistonni bir qator tibbiyot oliy o'quv yurtlarini 700 ziyod talabalari hamda yosh olimlari ishtirok etdilar.

Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasini tantanali ochilish marosimida institut rektori Jasur Alimjanovich Rizayev (Samarqand, O'zbekiston), Istanbul madaniyat Universiteti rektori Gulfettin Celik (Istanbul, Turkey), Ujgorod milliy universiteti rektori Vladimir Smolanka (Ujgorod, Ukraina), Privojsk tadqiqot tibbiyot universiteti rektori Nikolay Karyakin, (Nijniy Novgorod, Rossiya), I.Ya. Gorbachevskiy nomidagi Ternopol milliy tibbiyot universiteti rektori Mixail Korda (Ternopol, Ukraina), Ijevsk davlat tibbiyot akademiyasi rektori Aleksey Yevgenyevich Shklyayev (Ijevsk, Rossiya), S.D. Asfendiyarov nomidagi Qozoq milliy tibbiyot universiteti rektori Talgat Seytjanovich Nurgojin (Olma-Ota, Qozog'iston), Tojik milliy tibbiyot universiteti rektori Maxmadshox Kurbonali Gulzoda (Dushanbe, Tojikiston), Qozon davlat tibbiyot universiteti Farmatsiya

instituti direktori Ruslan Mustafin (Qozon, Rossiya), Toshkent farmatsiya instituti rektori Kamol Rizayev (Toshkent, O'zbekiston), “Salamah Medical Tourism Pvt.Ltd” kompaniyasi rahbari Mahbood Afzal (NewDelhi, India) o'zlarini qutlov so'zlari bilan ishtirokchilarga murojaat etib konferensiya ishiga omadlar tiladilar.

Yalpi majlisda zamonaviy tibbiyot va farmatsiyani dolzarb masalalariga bag'ishlangan ma'ruzalardan so'ng anjumanni asosiy ishi shubalarda davom etildi. Ularda klinik farmakologiyada zamonaviy yutuqlar, fundamental farmakologiyada zamonaviy yutuqlar, stomatologiya, otorinolaringologiya va oftalmologiyada zamonaviy yondashuvlar, yurak-tomir kasalliklarni davolashda innovatsion va pretseziyon (aniq) texnologiyalar, terapevtik va yuqumli kasalliklarni sabablari va ularni davolashga yosh olimlarni qarashlari, nevrologiya, psixiatriya, sport tibbiyoti va rehabilitatsiyani dolzarb masalalari, pediatriyada tashxis va davolash usullarini takomillashtirishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish, akusherlik, ginekologiya va reproduktiv tibbiyot, eksperimental va fundamental tibbiyot, xirurgiya, neyroxirurgiya, urologiya va travmatologiyani dolzarb masalalari, jamoat tibbiyoti, gumanitar fanlar va pedagogika, yosh olimlarni dolzarb tadqiqotlari, posterli ma'ruzalar kabi yo'nalishlarda talabalar va yosh olimlarni 300 ortiq ma'ruzalari tinglandi. Ularni chiqishlarini xolisona baholash uchun har bir shubada hayot rayosati ishladi. Xalqaro konferensiya hay'at a'zolariga talabalarni kiritilishi bu yilgi anjumanni e'tiborli jihatidan bo'ldi.

Konferensiya tashkilotchilari tomonidan 1500 ziyod ilmiy tezislarni qabul qilinib, ular

maxsus to'plam shaklida “Gepato-gastroenterologik tadqiqotlar” xalqaro jurnalida chop etildi.

Shuningdek konferensiya doirasida, “Universitet 3.0” konsepsiyasini joriy qilish, farmatsevtika sohasida yuqori malakali kadrlarni tayyorlash, ilmiy sohani amaliyot bilan bog'lash va ilm-fan yutuqlarini pullash samaradorligini oshirish maqsadida Samarqand davlat tibbiyot institutini “MEROS PHARM”, “INTEGRA DD”, “SAMARKAND ENGLAND ECO MEDICAL” (qo'shma korxonalar) kompaniyalari va “Samarqand dori-darmon” aksiyadorlik jamiyati bilan hamkorlik memorandumlari imzolandi.

Institutda o'tkazilgan “Zamonaviy tibbiyot va farmatsevtika: yangi yondashuvlar va dolzarb tadqiqotlar” talabalar va yosh olimlar an'anaviy 75-chi Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi shubhasiz yosh olimlar va talabalarni ilmiy-tadqiqot ishlariga jalb etish, ularni salohiyati va ilmiy izlanishlaridan samarali foydalanish, mamlakatimizda farmatsiya sohasini rivojlantirish, fundamental va klinik fanlar o'qitish sifatini yana-da oshirish, malakali tibbiyot kadrlarini tayyorlash hamda respublikamiz va xorijiy tibbiyot oliygohlari hamkorligini yanada kuchaytirishga xizmat qiladi.

**Shuxrat ZIYADULLAEV**  
Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha  
prorektor






## ASQAROV QUDRAT ASQAROVICH

Samarqand davlat tibbiyot instituti jamoasi og'ir judolikka uchradi. Beshafqat o'lim oramizdan taniqli olim, mohir pedagog, Samarqand davlat tibbiyot instituti biologik kimyo kafedrasida professori, kimyo fanlari doktori Asqarov Quدرات Asqarovichni olib ketdi.

Q.A.Asqarov 1937 yilda Qushrabort tumani Urganji qishlog'ida tug'ilgan. 1962 yilda Samarqand qishloq xo'jaligi institutini imtiyozli diplom bilan tamomlagandan so'ng, 1962-1966 yillar Samarqand qishloq xo'jaligi instituti mikrobiologiya kafedrasida assistenti, 1966-1969 yillar Samarqand davlat universiteti mikroelementlar muammosi laboratoriyasi aspiranti bo'lib ishlagan.

Quدرات Asqarovich keyingi faoliyatini 1969 yilda Samarqand davlat tibbiyot instituti biologik kimyo kafedrasida assistenti lavozimidan boshlab, 1972 yilda institut kafedra katta o'qituvchisi, 1977 yilda kafedra dosenti, 1977 - 2005 yillar -Samarqand davlat tibbiyot instituti bioorganik, bioorganik va biologik kimyo kafedrasida mudiri, 2005 - 2012



yillar instituti bioorganik, bioorganik va biologik kimyo va farmakologiya kafedrasida mudiri lavozimlarida davom ettirib keldi.

Asqarov Quدرات Asqarovich kafedrada talaba-yoshlarga saboq berish bilan birgalikda, institut jamoatchilik ishlarida ham munosib faoliyat ko'rsatib kelgan, jumladan, 1992 -1995 yillarda institut tarbiyaviy ishlar bo'yicha prorektori, 1999-2003 yillar institut ma'naviyat va ma'rifati bo'limi boshlig'i, 2007-2010 yillarda institut ichki nazorat va monitoring bo'limi boshlig'i lavozimida faoliyat ko'rsatib, yoshlar tarbiyasi va ma'naviy ma'rifiy ishlarni takomillashtirishda munosib hissi qo'shib kelgan.

Q.A.Asqarov tomonidan 300 dan ortiq ilmiy ishlari chop etilgan, 15 dan ortiq o'quv-uslubiy qo'llanmalar, 14 ta ixtiro va 3 ta monografiya muallifi. U kishining rahbarligida 4 ta nomzodlik va 2 ta doktorlik dissertatsiyasi himoya qilingan. Olim Ilmiy ishlarida faol bo'lib Respublika, MDH va Yevropa davlatlarida o'tkazilgan ko'plab nufuzli konferensiyalarda ishtirok etib, uning

ilmiy faoliyati ko'plab imtiyozli diplom va sertifikatlar bilan e'tirof etilgan.

Professor Quدرات Asqarov 2012 yildan hozirga qadar Samarqand davlat tibbiyot instituti meditsina va biologik kimyo kafedrasida professori lavozimida faoliyat ko'rsatib magistr va talabalariga saboq berib kelmoqda edi.

Quدرات Asqarovich katta hayotiy tajriba va chuqur bilimga ega bo'lgan mohir pedagog sifatida institut talaba-yoshlariga kimyo fani o'zining munosib hissasini qo'shgan. O'zining insonparvarligi, xalqchilligi tufayli viloyat va shahar jamoatchiligi o'rtasida katta hurmat e'tiborga sazovor bo'ldi. Mehribon ota, oilaparvar inson sifatida 5 farzandni tarbiyalab, hayotda o'zlarining munosib o'rinlarini topishlariga yetarlicha shart-sharoit yaratdi.

Quدرات Asqarovich ko'p yillik samarali mehnati uchun 2021 yilda O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan "Sog'liqni saqlash a'lochisi ko'krak nishoni" bilan taqdirlangan.


Asqarov Quدرات Asqarovich atrofdegilarning muhabbati va hurmatiga sazovor bo'lgan, bo'lajak yosh shifokorlarni doimiy maslahatgo'yi, mehribon va ajoyib inson edi. Q.A.Asqarovning yorqin xotirasi qalbimizda abadiy saqlanajak.

**Samarqand davlat tibbiyot instituti ma'muriyati va kasaba uyushmasi qo'mitasi**

## SIZCHI FARZANDINGIZNI NAZORAT QILYAPSIZMI?!

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012 yil 21 maydagi 139-son qarori talabalariga muvofiq institutda o'tkaziladigan dars mashg'ulotlari va tadbirlarda talabalar, professor-o'qituvchilar va boshqa xodimlarning mobil telefonlaridan foydalanishini hamda institutdagi kompyuterlarda ta'lim jarayoniga tegishli bo'lmagan ma'lumotlarni, xususan, turli kinofilmlar, behayo suratlar, milliy irqiy, etnik, diniy adovatni targ'ib qiluvchi har qanday materiallarni saqlash, ulardan foydalanish va targ'ib etishlari ustidan qat'iy nazorat o'rnatilganligi barchamizga ayon. Institutimizda optik tolali tezkor Internet jahon axborot tarmog'i bilan ta'minlangan bo'lib, institut binolarida va talabalar turar joylarida Wi-Fi hududlari, kutubxonalarda QR-kod yordamida elektron resurslardan foydalanish tizimi yaratilganligi talabalar katta qulaylik yaratmoqda, institutda faoliyati yo'lga qo'yilgan turli virtual klublarda "Bloggerlik mahorati" mavzusida **vebinarlar**, seminarlar va boshqa loyihalar amalga oshirilib kelinmoqda.

Bugungi kunda yoshlar orasida kompyuter va mobil telefonlar, Internet o'yinlariga va ijtimoiy tarmoqlarga tobe bo'lib qolish, Tik-Tok kabi ijtimoiy tarmoqlarda mashhurlikka erishish uchun odob-axloq mezonlariga zid, g'ayri ijtimoiy tarmoqlarda mashhurlikka erishish uchun odob-axloq mezonlariga zid, g'ayriijtimoiy harakatlarni sodir etish holatlari ortib bormoqda, ayniqsa yoshlarning virtual olamda ko'p vaqt o'tkazishi ularni real hayotdan uzilib qolishiga, harakatsizlikka, mahdudlikka, xudbin bo'lib voyaga



yetishiga olib kelishi hech kimga sir emas. O'rganishlar shuni ko'rsatmoqdaki, ayrim ota-onalar farzandlari internetdan nima maqsadda foydalanayotganini nazorat qilib bormaydi. Yoshlarga tegishli ko'nikma va immunitetga keng axborot maydonida turli ko'rinishdagi salbiy ma'lumotlar ta'siriga tushib qolishmoqda. Yuqoridagi holatlarning oldini olish maqsadida institutda internet foydalanuvchilari orasida ma'lum bir cheklolar ya'ni taqiqlangan saytlarga kirishga ruxsat berilmaganligi ayni muddaodir. Institutda o'tkazilayotgan ma'naviyat kunlarida va axborot va murabbiylik soatlarida talabalarga internetdan to'g'ri va maqsadli foydalanishlari xususida muntazam ravishda professor-o'qituvchilar tomonidan muayyan darajada ma'naviy-

axloqiy ishlar amalga oshirilib kelinmoqda, "Internet – ilm manbai", "Internetdan foydalanish madaniyati" kabi mavzularda xaftalik o'tkazilib ularda Internetdan unumli foydalanish, talabalarda axborot immunitetini shakllantirishga qaratilgan uslubiy tavsiyalar berib kelinmoqda.

Bu masalning bir tomoni bo'lsa ikkinchi tomoni talabalarni institut mas'ullari faqatgina ta'lim jarayonida asosan kunning birinchi qismida nazorat qilish imkoniyatiga egaligi hech kimga sir emas. Xo'sh darsdan so'ng bo'sh vaqtini talaba ota-onasini nazoratida o'tkazadi, **siz farzandingizni internetdan samarali foydalanayotganligini nazorat qilyapsizmi?!** Uyushmagan yoshlarni ota-onalari yuqoridagi masala bo'yicha doimiy nazorat qilib turishadimikin bu ham og'riqli savollardan biridir.

Har bir ota-ona o'z farzandini mustaqil va sog'lom fikrlaydigan qat'iy hayotiy ijobiy pozitsiyaga ega, internetdagi salbiy g'oyalarga qarshi mafkuraviy immunitet shakllantirishi, nodavlat Internet veb-saytlari uchun salbiy yoki noto'g'ri ma'lumotlarni joylashtirish holatlariga nisbatan javobgarlikka tortishi mumkinligini tushuntirishlari, ota-onalarning o'z farzandlarida Internetdan foydalanish madaniyatini rivojlantirish, uni nazorat qilish bo'yicha mas'uliyatini oshirishlari bugungi kun talabidir.

**Nodirbek Musurmanov**  
Yoshlar bilan ishlash, ma'naviyat va ma'rifati bo'limi xodimi

## O'KTAM ABDIYEVNI YOD ETIB



Inson bor ekan, xotira - muqaddas. Hech kim, hech narsa esdan chiqmaydi. Institut harbiy tibbiy tayyorgarlik kafedrasida uzoq yillar davomida kafedra mudiri sifatida faoliyat ko'rsatgan podpolkovnik Abdiyev O'ktam Polatovich o'z kasbining mohir bilimdoni edi. O'ktam Polatovich 1970 yilda Samarqand davlat tibbiyot institutini bitirgandan so'ng butun umrini harbiylik kasbiga bag'ishladi. O'Abdiyev 1972-1989 yillarda harbiy xodim sifatida turli Respublikalarda o'z kasbining fidoiysi sifatida xizmat qilib keldi. O'ktam Abdiyev 1989 yilda o'zi o'qigan jonajon dargohi bo'lgan, Samarqand davlat tibbiyot instituti harbiy tibbiy tayyorgarlik kafedrasiga ishga qaytib, umrining oxiriga qadar ushbu kafedrada katta o'qituvchi, kafedraning o'quv ishlari bo'yicha ma'suli va kafedra mudiri lavozimlarida ishlab keldi. O'ktam Abdiyev mazkur kafedradagi faoliyati

davrida bir necha minglab, bo'lajak shifokorlarga harbiy -tibbiy sohadagi bilimlarni berib keldi. O'ktam Polatovich o'qitgan bir qator shogirdlari bugungi kunga qadar ham turli tibbiyot muassasalari, harbiy-tibbiy soha gospihallari va shifoxonalarda faoliyat ko'rsatib kelmoqda. O'ktam Abdiyev o'z sohasining bilimdoni va mohir pedagog sifatida nafaqat kafedra jamoasi, balki butun institut jamoasi o'rtasida obro' - e' tibor qozongan fidoiysi inson edi. Xotira - odamlarning vafotidan keyin ham bu dunyoda yashashi uchun imkon beradigan birdan-bir makon. Odamlar - ortda qolganlar xotirasida yashashga intilish ilinji kishini tarbiyalaydi. Uni ezguliklarga, kishilarning biror-bir koriga yarab qolishga, ummi zoye ketkazmaslikka undaydi.

Shunday kishilar tirikligida ham qadr topadi. Xalq hech qachon yaxshi farzandlarini esdan chiqarmaydi. Xalqning xotirasiz yashashi aslo mumkin emas...

O'ktam Abdiyev kabi o'z sohasining bilimdonlari doimo qalbimizda yashaydi.

**Sulaymon HALIMOV**  
yoshlar bilash ishlash, ma'naviyat va ma'rifat bo'limi boshlig'i

## CHEKISH UMRINGIZNI QISQARTIRADI 31-MAY XALQARO CHEKISHGA QARSHI KURASH KUNI

"Chekish siz va atrofingizdagilar sog'ligi uchun jiddiy zarar yetkazadi" deb nikotin maxsulotlari qutisida yozilgan va ogohlantirilgan bo'lishiga qaramasdan biz insonlar o'z sog'ligimizga befarqimiz. Chekish, yani kashandalik o'limga olib kelishi biz o'ylagandan ham yuqori. Kashandalik oqibatida yer yuzida har yili yetti millionga yaqin kishi hayotdan ko'z yumadi. Ayni paytda jahonda 1,6 milliardga yaqin tamaki chekuvchilar mavjud desak mubolog'a bo'lmaydi. Chekuvchilar soni yildan - yilga o'sib bormoqda. So'nggi malumotlarga ko'ra taxminan yurtimizda 2,9 millionga yaqin doimiy chekuvchilar mavjud bo'lib, shularning yarmidan ko'pining hayoti xavf ostida.

Tamaki va uning tutuni tarkibida inson organizmiga zarar yetkazuvchi 400 xildan ortiq turlicha birikmalar aniqlangan bo'lib, ularning inson organizmini zaharlovchi tasiri ham aniklangan. Tamaki tarkibidagi nikotin moddasi kashandalik xumorini keltirib chiqaruvchi kuchli zahardir. Chekish natijasida miya nikotin moddasini kelib turishiga o'rganib qolib, uning ishlashini malum darajada yengillashtiradi. Kashanda miyasini nikotin bilan tetiklashtirib turadi, oqibatda chekishga odatlanib qoladi, organizmga nikotin moddasi kirmay qolsa bezovtalik, asabiylik, serzardalik holatlari kuzatiladi. Nikotin tasiri ostida miya tomirlarining orasi qisqaradi, qon miyaga kam miqdorda keladi, natijada bosh og'irishi va aylanishi paydo bo'ladi. Nikotin qon bosimini ko'taradi va asta- sekin inson xotirasini pasayishiga olib keladi. Tamakida konserogen tasirga ega bo'lgan modda yani benzoperin mavjud. Tamaki inson salomatligi uchun xavfli bo'lib, yurak qon-

tomir, nafas olish, ovqat hazm qilish, asab ichki sekresiya, jinsiy bezlar azolariga zaharli tasir qilib miokard infarkti, xafaqon kasalligi, bronxlarning surunkali yallig'lanishi, organizmda xavfli o'smalar singari ko'pgina xavfli kasalliklarga sabab bo'ladi. Institut va Samarqand viloyat narkologiya dispanseri hamkorligida har yili "31- may -Xalqaro chekishga qarshi kurashish kuni" munosabati bilan turli korxonalar va muassasalarda va insitit talaba-yoshlari o'rtasida tadbirlar va marofonlar o'tkazilib, vrach- narkologlar tomonidan barcha

chekuvchi insonlar sog'ligi va sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish bo'yicha "Sog'ligingiz o'z qo'lingizda", "Kashandalikka ruju qo'ymang", "Kashandalik- umr zavoli", "Agar sog'lom bo'laman desangiz", "Hech qachon tamakiga qo'l cho'zmang", "Yoningizdagilarni ham ogohlantiring" kabi mavzularda ma'ruzalar qilib kelishmoqdalar.

**D.Z. QOSIMOVA**  
Samaqand viloyat narkologiya dispanseri vrach narkologi  
**M.M. TOLIBOV**  
SamDTI dermatovenerologiya kafedrasida 1- bosqich magistri

## OCHIQ MARUZALARE'LONI

**31 - May 2021 yil** - Samarqand ko'p tarmoqli tibbiyot markazi ma'ruza zalida: Pediatriya fakulteti **401-406-guruxlari** uchun: "**Gemorragik diatezlar, etiopatogenezi, klinikasi, tashxisi, davolash tamoyillari**" mavzusida ochiq ma'ruza o'qiladi.

**Ma'ruzachi:** Dotsent, t.f.n. U.D. Dadajonov

Pediatriya fakulteti Ichki kasalliklar kafedrasida

**31 - May 2021yil** - RSHTTEIMSF qoshida joylashgan Pediatriya fakulteti **Ichki kasalliklar kafedrasida** ma'ruza zalida **Tibbiy profilaktika** fakulteti **201-205-guruxlari** uchun: «Ichki kasalliklar propedevtikasi: bemorlarni fizikaviy tekshirish usullari. Bemorning ilmiy-tibbiy, yuridik bayonnomasi sxemasi: so'rab- surishtirish, asosiy va qo'shimcha shikoyatlari, kasallik va holat tarixi. Fizikal tekshirish uslublari.» mavzusida ochik ma'ruza o'qiladi.

**Ma'ruzachi:** Dotsent, t.f.n.D.K.Ishankulova

**Sana: 04.06.2021 y soat 10:05 da**

**O'tkazish joyi:** Pediatriya fakulteti ichki kasalliklar kafedrasida ma'ruza zali

**Mavzu:** Rheumatic fever. Mitral and aortic valve defects.

**Ma'ruzachi:** PhD dots: **Babamuradova Z.B.**

**Ekspertlar:**

1. 3-Ichki kasalliklar va endokrinologiya kafedrasida mudiri t.f.d., prof. Shodikulova G.Z.

2. RSHTYOIM SF1-shoshilinch terapiya bo'limi mudiri Rofeev M.Sh.

**Zoom ga ulanish:** <https://us05web.zoom.us/j/88408967487?pwd=NG8vVGZk4zWTR5eGRINnJROEhZz09>

**Identifikator:** 884 0896 7487 **Kod:** 04/06/21

**Taklif kilinganlar:** MBBS 3 kurs talabalari, Ichki kasalliklar kafedralari va dekanat xodimlari, klinik ordinatorlar va magistrilar.



## SamDTI quyidagi lavozimlariga tanlov e'lon qiladi

### DAVOLASH ISHIFAKULTETI

**1-son ichki kasalliklar** kafedrasida, assistent o'qituvchi lavozimiga - 2 o'rin;

**Ichki kasalliklar propedeutikasi** kafedrasida, assistent o'qituvchi lavozimiga - 2 o'rin;

stajer assistent o'qituvchi lavozimiga - 1 o'rin;

**1-son akusherlik va ginekologiya** kafedrasida, assistent o'qituvchi lavozimiga - 1 o'rin;

**1-son xirurgik kasalliklar** kafedrasida, assistent o'qituvchi lavozimiga - 1 o'rin;

**Patologik anatomiya** kafedrasida, **seksion-biopsiya** kursi bilan, assistent o'qituvchi lavozimiga - 1 o'rin;

stajer assistent o'qituvchi lavozimiga - 2 o'rin;

**Anesteziologiya va reanimatsiya** kafedrasida, assistent o'qituvchi lavozimiga - 1 o'rin;

stajer assistent o'qituvchi lavozimiga - 2 o'rin;

**Gematologiya** kafedrasida, assistent o'qituvchi lavozimiga - 1 o'rin;

stajer assistent o'qituvchi lavozimiga - 2 o'rin;

**Pediatriya** kafedrasida, assistent o'qituvchi lavozimiga - 2 o'rin;

**2-son otorinolaringologiya** kafedrasida, kafedra mudiri lavozimiga - 1 o'rin;

### PEDIATRIYA FAKULTETI

**Oftalmologiya** kafedrasida, professor lavozimiga - 1 o'rin;

**Pediatriya fakulteti xirurgik kasalliklar** kafedrasida, stajer assistent lavozimiga - 2 o'rin;

**1-son pediatriya** kafedrasida, dotsent lavozimiga - 1 o'rin;

**2-son pediatriya** kafedrasida, **neonatologiya** kursi bilan, dotsent lavozimiga - 1 o'rin;

**2-son pediatriya** kafedrasida, **neonatologiya** kursi bilan, assistent o'qituvchi lavozimiga - 1 o'rin;

**Traumatologiya va ortopediya** kafedrasida, assistent o'qituvchi lavozimiga - 2 o'rin;

**2-son akusherlik va ginekologiya** kafedrasida, assistent o'qituvchi lavozimiga - 1 o'rin;

**Pediatriya fakulteti ichki kasalliklar** kafedrasida, stajer assistent lavozimiga - 2 o'rin;

**Yuqumli kasalliklar** kafedrasida, assistent o'qituvchi lavozimiga - 1 o'rin;

**Nurli diagnostika va terapiya** kafedrasida, stajer assistent lavozimiga - 2 o'rin;

**Klinik laborator diagnostikasi** kafedrasida, stajer assistent lavozimiga - 1 o'rin;

### TIBBIY PEDAGOGIKA FAKULTETI

**Tibbiy va biologik fizika** kafedrasida, stajer assistent lavozimiga - 1 o'rin;

**Informatika, informatsion texnologiyalar** kafedrasida, Kafedra mudiri lavozimiga - 1 o'rin;

assistent o'qituvchi lavozimiga - 1 o'rin;

stajer assistent lavozimiga - 2 o'rin;

**Tillar** kafedrasida, stajer assistent lavozimiga - 2 o'rin;

### STOMATOLOGIYA FAKULTETI

**2-son stomatologiya** kafedrasida, stajer assistent lavozimiga - 2 o'rin;

**Bolalar stomatologiya** kafedrasida, stajer assistent lavozimiga - 2 o'rin;

**Yuz-jag' xirurgiyasi, bolalar yuz-jag' xirurgiyasi** kafedrasida, assistent lavozimiga - 2 o'rin;

stajer assistent lavozimiga - 2 o'rin;

**1-son Otorinolaringologiya** kafedrasida, stajer assistent lavozimiga - 2 o'rin;

### DIPLOMDAN KEYINGITALIM FAKULTETI

**Umumiy amaliyot oilaviy meditsina** kafedrasida, assistent o'qituvchi lavozimiga - 2 o'rin.

**Nevrologiya va neyroxirurgiya** kafedrasida, stajer assistent lavozimiga - 2 o'rin.

**Radiologiya** kafedrasida, Kafedra mudiri lavozimiga - 1 o'rin.

**Nevrologiya va neyroxirurgiya** kafedrasida, Kafedra mudiri lavozimiga - 1 o'rin.

### OLIY HAMSHIRALIK ISHIFAKULTETI

**Teri-tanosil kasalliklari** kafedrasida, assistent lavozimiga - 1 o'rin;

**Endokrinologiya** kursi, stajer assistent lavozimiga - 2 o'rin;

**3-son ichki kasalliklar** kafedrasida, assistent lavozimiga - 1 o'rin;

stajer assistent lavozimiga - 2 o'rin;

### TIBBIY PROFILAKTIKA, JAMOAT SALOMATLIGI VA

### TIBBIY BIOLOGIYA FAKULTETI

**Jamoat salomatligi va sog'liqni saqlash menejmenti** kafedrasida, stajer assistent lavozimiga - 1 o'rin;

**Umumiy gigiyena va ekologiya** kafedrasida, assistent o'qituvchi lavozimiga - 2 o'rin;

stajer assistent lavozimiga - 2 o'rin;

**Mikrobiologiya, virusologiya va immunologiya** kafedrasida, stajer assistent lavozimiga - 2 o'rin;

**Patologik fiziologiya** kafedrasida, stajer assistent lavozimiga - 2 o'rin;

**Odami anatomiyasi, operativ xirurgiya va topografik anatomiya** kafedrasida, Kafedra mudiri lavozimiga - 1 o'rin;

stajer assistent lavozimiga - 2 o'rin;

**Gistologiya, embriologiya va sitologiya** kafedrasida, assistent o'qituvchi lavozimiga - 1 o'rin;

stajer assistent lavozimiga - 2 o'rin;

**Epidemiologiya kafedrasida** kafedrasida, assistent o'qituvchi lavozimiga - 2 o'rin;

**Kafedra mudiri** lavozimini egallash uchun tanlovda fan doktori, fan nomzodi ilmiy darajasiga, professor yoki dotsent ilmiy unvoniga, shuningdek falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasiga ega bo'lgan shaxslar qatnashishi mumkin.

**Dotsent** lavozimini egallash uchun tanlovda fan doktori, fan nomzodi (PhD) ilmiy darajasiga yoki dotsent ilmiy unvoniga ega bo'lgan shaxslar qatnashishi mumkin

**Assistent o'qituvchi** lavozimini egallash uchun tanlovda fan nomzodi (PhD) ilmiy darajasiga, tegishli mutaxassislik bo'yicha oliy ma'lumotga ega bo'lgan shaxslar (magistr, diplomli mutaxassis) qatnashishi mumkin.

*Hujjatlar e'lon qilingan kundan boshlab bir oy davomida qabul qilinadi.*

**Manzil:** Samarqand shahri A.Temur ko'chasi, 18 uy.

Tahririyat raisi:

**J.A. RIZAYEV**

Bosh muharrir:

**E.S. TANGIROV**

Tahrir hay'ati:

**G'U. LUTFULLAEV,**

**S.A. KARABAEV,**

**S.E. MAMARADJABOV,**

**A.A. AXMEDOV,**

**J.F. KADIROV.**

## SHIFOKOR SO'ZI

Nashr uchun mas'ul:  
**N. MUSURMANOV**

Operator va sahifalovchi:

**A. KELDIYAROV**

Fotomuxbir:

**O. AXMEDOV**

Gazeta Samarqand viloyat matbuot va axborot boshqarmasi tomonidan 18.01.2007 y. 09-33 raqami bilan ro'yxatga olingan.

**INDEKS: 5539**

Gazeta har oyda bir marta to'liq rangli shaklda chop etiladi va bepul tarqatiladi

**MANZIL:** Samarqand shahri, Amir Temur ko'chasi 18-uy.  
Tel: (99866) 233-09-76 Faks: (99866) 233-71-75  
e-mail: [shifokor@samti.uz](mailto:shifokor@samti.uz), [sammi@sammi.uz](mailto:sammi@sammi.uz)

Gazeta SamDTI bosmaxonasida, ofset usulida chop etiladi.  
Nashrga ruxsat berildi: 2021 yil, 24 may. Adadi 200 nusxa. Buyurtma: 202